

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT
UNIVERSITETI

Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrası

Qo‘lyozma huquqida

ASQAROV O‘TKIRBEK SHUKURULLO o‘g‘li

**O‘ZBEKISTONDA MAXALLIY BOSHQARUV TIZIMI DEMOKRATIK
YO‘NALISHLARIDA
(UCHINCHI SEKTOR MASALASIDAGI QONUNIY SILJISHLAR).**

5111600-Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’lim yo‘nalishi
bo‘yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ish rahbari:
dots. Sh.Asqarov

ANDIJON-2015

Mundarija

Kirish.	3
I bob. “Uchinchi sektor”ning mohiyati, fuqarolik jamiyati qurilishi va rivojidadagi roli	
1.1 “Uchinchi sektor” atamasining ijtimoiy mazmuni va fuqaroli jamiyati kurilishida itiroki mohiyati.....	6
1.2 Ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi uzviy bog‘liqligi.	16
II bob. Fuqarolik jamiyati barpo etishning xalqaro tajribalari va Uzbeksitonning strategik yondashuvi.	
2.1 Fuqarolik jamiyati barpo etishning omillari va istiqbollari masalasida xalqaro tajriba.....	21
2.2 Mustaqil O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish strategiyasi va taktikasi.....	28
2.3 O‘zbekistonda “uchinchi sektor”ning faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari.	38
Xulosa	41
Foydalanilgan adabiyotlar	46

Kirish.

Mustaqillikning dastlabki kunidanok Mustaqil O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov O‘zining “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” asarida mamlakatimizda sodir etiladigan tarixiy o‘zgarishlarni belgilar ekan, biz “demokratik odil, xuquqiy fuqarolik jamiyat sari borishimizni” takidlagan edilar. Bugungi kun ijtimoiy yo‘nalishimizning asosi bo‘lmish, demokratiyani modernizatsiya qilish va fuqarolik jamiyatini yanada chuqrlashtirish vazifasi qo‘yilgan. Bunda ayniqsa fuqarolik jamiyatining kuchli institutsional organlariga etibor alohida qaratilmoqda.

Bunda institutsional organlar sarasiga aynan nodavlat notijorat tashkilotlari kirib, jumladan ular O‘zbekistonning siyosiy- huquqiy, ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy hayotida juda katta va beqiyos muxim vazifalarni amalga oshirishlari lozim. Biz tadqiq qilayotgan mavzu aynan shu muxim masalaga qaratilgan bo‘lib, jaxon miqyosida bugungi ilmiy terminalogiyaga “uchinchi sektor” tarzida kirgan organlarni taxlil qilmoqdamiz.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, o‘z Konstitutsiyasini qabul qilar ekan nodavlat notijorat tashkiloti faoliyati doirasiga kiradigan prinsipial masalalarni mustaxkamlab kiritganini ko‘ramiz. Demakki masala bugun yoki endigina topilgan va tushinilgan bo‘lmay balki o‘z negizlariga Mustaqilligimizning birinchi kunlaridan oshlab I.A.Karimov tamonidan belgilanganini bilish mumkin. Undan tashqari fuqarolik jamiyati qurilishining tarixiy nazariy negizlari shuningdek bugungi kundagi ilg‘or jamiyatlar erishgan tajribalarga ko‘ra NNT lariga etibor bermay yoinki ularni rivojlantirmay kerakli maqsadga etib bo‘lmasligini isbotlab turibdi. SHu bois biz “Uchinchi sektor” va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlanish masalasini chuqur va keng taxlil qilishga urinib ko‘rmoqdamiz. Prezident I.A.Karimov takidlaganidek “Fuqarolik institutlari, nodavlat- notijorat tashkilotlari xozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy

manfaatlarni himoya qilishning muxim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial- iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oo'irio' uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'nikishmoqda.”¹

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishdan asosiy maqsad jamiyat a'zolarining manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash va himoya qilishdan iborat. Bunda hat bir sektorning o'z o'rnini va roli aniq belgilangan va taqsimlangan bo'lmog'i zarur. Fuqarolik jamiyati institutlari yani “uchinchi sektor” tashkilotlari o'z mohiyatiga ko'ra fuqarolarni o'zini anglashga, ijtimoiy munosabatlarda o'zini o'zi boshqarishga qaratilgan, ixtiyoriy tarzda birlashgan, muayyan bir maqsadga erishishni nazarda tutgan nodavalt shaklidagi tashkilotlardir. Prezidentimizning fikrlaridan kelib chiksak “Kuchli davaltdan – kuchli jamiyat sari” degan tamoilning amaliy ifodasi”... dir, demak bizning maqsadimiz “uchinchi sektor”ning nazariy va amaliy jixatini o'rganishdir.

Bundan kelib chiqib oldimizga qo'ygan maqsadimiz, -“uchinchi sektor”ning shakillanish va rivojlanish xolatlarini o'rganish;

-Prezident I.A.Karimov tomonidan O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakillantirish, jumladan NNT larni ijtimoiy sherikchilik tomonlarini taxlil qilish;

- Ijtimoiy sherikchilik va uning tarkibida “uchinchi sektor”ning roli va o'rniga bo'lgan davlatimizning xalqaro tajriba va o'z imkoniyatlarimiz darajasidagi konseptual strategiyaning ko'rib chiqish;

- ijtimoiy dastur va loixalarni amalga oshirishda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorliigni taxlil etish;

- mamlakatni modernizatsiya qilishda ijtimoiy sherikchilikning zarurati va ahamiyatini o'rganish;

¹ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Тошкент 2010 йил. 42 бет.

fuqarolik jamiyati institutlarining tashkil topishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari bo'yicha o'z fikrlarimiz asosida takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan "uchinchi sektor" yani nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalarini tabiatlarini o'rganish tadqiqotimiz ob'ekti sifatida belgilanib, O'zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyati barpo qilishda nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari yoki "uchinchi sektor"ning jamiyatimiz hayotidagi faollik darajasi va uning dinamikasi masalalarini ilmiy taxlil bilan o'rganish tadqiqotimiz predmetidir.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati; Tadqiqot yurtimizda sodir etilayotgan kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishda davlat organlari bilan "uchinchi sektor" yani nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalarining ijtimoiy sherikchilikdagi faoliyatini va axamiyatini tadqiqi etishga qaratilgan. Unda ilgari surilayotgan takliflar va tadbirlar rejalari asosida kelgusida O'zbekistonda davlat va "uchinchi sektor" xamkorilgini tobora kengaytirish va kuchli fuqarolik jamiyati sari ijtimoiy sherikchilik asoslariga utib borish masalalariga javob topishga ko'mak buladi. Ijtimoiy sherikchilik institutlarini shakillanishi va rivojlanishida ularni tabiatini o'rganish va tadqiq qilish imkoniyatlarini kengaytirish axamiyatiga molik bo'la oladi. SHunindek tadqiqot xulosalari, taklif va tavsiyalari jamiyat a'zolarini ijtimoiy ma'rifiy yo'naltirilishida, dasturiy rejalar ishlab chiqilishida malum axamiyat kasb etishi mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi. Bitiruv malakav ish kirish, ikki bob va besh bo'lim, xulosa va faydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob. “Uchinchi sektor”ning mohiyati, fuqarolik jamiyati qurilishi va rivojidadagi roli.

1.1.“Uchinchi sektor” atamasining ijtimoiy mazmuni va fuqaroli jamiyati kurilishida itiroki mohiyati.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan boshlab o‘z ichki siyosiy qurilishida ulkan o‘zgarishlarni jaxon andozalaridan kelib chiqqan xolda joriy etmoqda. SHunday yangilanishlardan biri 1992 yilgi qabul qilingan Konstitutsiyamiz bo‘lib uning mazmun mohiyati to‘laligicha halqaro demokratik qurilishning talablariga to‘la javob berishidir. Demokratiyaning xozirda qo‘yayogan talablaridan biri jamiyat a‘zolarining siyosiy xayotda faol va tengxuquqlilik asosida ishtirok etishi, boshqaruvni shaxslar individlar xoxish irodasiga ko‘ra emas balki keng jamoatchilik ishtiroki tomon siljishi talab etilmoqda. Jumladan jaxonning ilg‘or davaltlari va jamiyatlari o‘tayotgan ijtimoiy sherikchilik andozalari bilan shakillantirish kundan kunga o‘z afzalliklarini ko‘rsatib bormoqda. Bunda jamoatchilikni ishtirok etishi yangi yo‘sinlarda yani noananaviy tarzda nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoa birlashmalarining keng ishtiroki o‘z aro shartnoma va kelishuvlar tarzida joriy bo‘lishiga o‘tib borilmoqda.

Mamlakatimiz demokratik yangilanish jarayonida chinakam mustaqillikni taminlash, insonlar va jamiyat qonuniy manfaatlarini joriy etish, olib boriliyotgan o‘zgarish va ishlarni huquqiy, tashkiliy, moddiy, ma‘naviy xolatlarini amalga oshirish va quvvatlashga yo‘naltirilgan 200 dan ortiq qonun va normativ hujjatlar qabul qilindi. Bu yo‘nalshda nodavalt va notijorat tashkilotlari xamda jamoat birlashmalari faoliyatlari rivolantirishga qaratilgan, fuqarolik instituti tarzidagi ishlarini kuchaytirishga qaratilgan qonunlarni aloxida aytish mumkin. Bunda “Nodavalt – notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi muxim ahamiyat kasb etib bordi.

Xususan yaqin 10-15 yil moboynida ilmiy siyosiy terminlar sarasiga kirib kelayotgan “uchinchi sektor” atamasi o‘z mazmun moxiyaiga ko‘ra ijtimoiy fanlar atamalariga kirib keldi. “Uchinchi sektor” nomi bilan fuqarolik jamiyati institutlarining Davlat vakolatli organlari bilan ijtimoiy sherikchilik orqali jamiyatimizda demokratik o‘zgarishlarni jadallashtirish keng va chuqur xolda joriy etib, dolzarb muammolarini xal qilinmoqda. Bunda aynan davlat vakolatlari mavjud bo‘lgan, lekin bajarilish samaradorligi kam xollarda “uchinchi sektor” tashkilotlari samaraliy faoliyat olib borish imkoniyatlari ishga tushirilmoqda. Ayni paytda bunday ijtimoiy sherikchilik davlat va jamiyat manfaatdorligini samarali namoyon etib bormoqda va ta‘minlash imkoniyatlariga egadir. Odamlar kayfiyati mamlakatda sodir bo‘layotgan o‘zgarish va yangilanishga munosabatidan bilinib boradi, bunda qilinayotgan ishlarning to‘g‘ri yoki nouriin ekanligiga baxo berish mumkin.

“Uchinchi sektor” tashkilotlari va davlatning o‘z aro hamkorligi asoslarini institutsional xolatini o‘rganishda biz ularning aniq vazifalarini jamiyat extiyojlari darajasida yechimini amalga oshirish tizimlarini tushinishimiz kerak. Hozircha bularni yagona tizimlangan va shakillangan modeli mavjud bo‘lmay har bir davlat va jamiyatlar o‘zlari uchun aloxida va xilma xil tarzda joriy etib bormoqdalar. Ijtimoiy sherikchilik joriy etilgan jamiyatlarda aksariyat xolda ikki taraflama va ko‘p joylarda uch taraflama kelishuvlar asosida tuzilgan shartnomalar asosida ish bormoqda. Fuqarolik jamiyatlari qurilishi va takomillashishida ijtimoiy sherikchilik aynan ikki tamonlama bo‘lmog‘i taklif etilmoqda. Bunda NNT tashkilotlari va jamoat birlashmalari bir tamodan “uchinchi sektor” va davlat vakolatli organlari ikkinchi tamondan sodir etiladi. Xozircha turli davlatlarda turlicha kechmoqda.

Jumladan bundan sherikchilik biror bir hurmatli yoki imtiyozli yuqori tamonidan belgilab berilgan emas. Yevroppada o‘n, yuz, yillar moboynida Sharqda keyingi 15- 20 yil davomida shakillanib bormoqdaki unga xali xam to‘la shakil berildi deya olmaymiz. “Sektor”, “asosiy” kabi atamalar xazircha aniq anglash uchun ko‘p joylarda xatto shakillanmaganligini etirof etish mumkin. Demak taklif

etilayotgan “uchinchi sektor” nodavalt va notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari yagona sektorga birlashtirilgan xolda olinishi asosan ijtimoiy sherikchilik nazaryasining kirib kelishi bilan bog‘liqdir. Ularning institutsional soxalari rivojlangan joylarda, masalan ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, ekologiya, xalqaro ko‘mak va yordam soxalarida muvofaqiyatlar va imkoniyatlar kattaligini ko‘ramiz. Demak bu jarayonnig imkoniyatlari boshqa soxalarga yoyilganda undanda katta muvofaqiyatlarga erishish mumkindir.

Shunga qaramasdan “uchinchi sektor” atamasi kirib kelishi va uni qo‘llashga xarakatlar na faqat ilimda balki notijorat nodavalt tashkilotlariva jamoat birlashmalariga nisbatan olinganda, ularga nisbatan munosabatni davlad va jamiyat munosabatida keskin ijobiy tomon siljitishga imkon beradi.

Umuman olganda “uchinchi sektor” tashkilotlarini birlikda institutsional asoslariing ayrib jixatlarini tashkil etish va faolligini taminlash uchun kerakdir. Birinchidan ularni ro‘yxatga olish faoliyatlarini kuzatib borish, ichki va tashki amaliyotini korreksiya qilish kabi; ikkinchidan, “uchinchi sektor” ning jamiyat uchun axamiyatli qarorlarni qabul qilinishida ishtirokini huquqiy va amaliy jihatdan taminlash; uchinchidan, notijorat va nodavlat tashkiloti va jamoatchilik birlashmalarining eng nozik joyi bo‘lgan moliyalash tizimini aniq ravshat ishlashi imkoniyatini belgilab olish; to‘rtinchidan, davlat tazimini nazorat qilishda ishtiroki masalalrini aniq belgilay olish; va beshinchidan ikkinchi va uchunchi sektor o‘rtasidagi o‘zaro axborat va komunikatsiya ayriboshlashni muvofiqlashtirishdir.

Umuman olganda quydagi tashkilotlar nodavalt notijorat tashkilotlar tafsifiga kiritilishi mumkin bo‘lib bular; 1 jamoat birlamalari, 2 ijtimoiy fondlar, 3 Asossatsialar, 4 o‘zini o‘zi boshqarish organlari. Bularning barchasi o‘z faoliyatida davalt tamonidan chiqarilgan qonunlar vakolati doirasida xarakat qilgan xolda o‘z moddiy mablag‘lariga va vazifalariga ega bo‘la oladilar. Ammo ularning barcha faoliyati jamoatchilik va qonun tamonidan olib borilishi talab etiladi.

Jumladan jamoat tashkilotlari tizimiga kuydagilar kiradi:

- 1 Siyosiy partyadan, ularning jamiyat siyosiy xayotidagi o'rni beqiyos bo'lib jamiyat ijtimoiy siyosiy yo'nalishini belgilashdan deyarli inkor etib bo'lmaydigan katta vakolatlarga egadir. Buni saylov qonunchiligidan xam ko'rsak bo'ladi.
- 2 Ommaviy xarakatlar, bunda jamiyat manfaatlarining bazi bir jixatlaridan kelib chiqilgan xolda aloxida zarurat tufayli tuzilgan birlashmalarni aytish mumkin. Masalan ekologik xarakat, yoshlar xarakatlari va boshqalar. Bundagi imkoniyat jamiyatni mobil xolatga zarur vaqtda tez keltirishga yo'naltirilgandir.
- 3 Kasaba uyushmalari, tarixiy ijtimoiy o'zaro qo'llov xarakati bo'lib, kishilar o'z mexnat yo'nalishlaridan, kasbiy yakinligidan, o'zaro munosabat va muloqatda xamjixatligi va manfaatlari o'z yaqinligidan tashkil topgan. Bunday birlamaning potensiali o'ta kuchli bo'lib unga nisbatan bazi bir kuchli davaltlar o'z iqtisodiy siyosatlarini ishlab chiqishga olib kelgan.(AQSH)
- 4 Xotin kizlar jamiyatlari, xar qandan kishilik tizimida aloxida o'ringa ega bo'lishi shart bo'lgan jamiyatning deyarli yarmidan ko'pini tashkil qiladigan a'zolari uyushmalaridir. Bunda xarakat deyarli XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab XIX asrning boshlarida yuqoriga qarab ko'tarila bordi. XX asrga kelganda o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqib olishi sababli jamiyatlar ijtimoyi siyosiy xayotida aloxida o'rin tuta boshlagan. Bu jamiyatlar o'z imkoniyatlari ila ijtimoiy xayotda katta o'zgarishlar qilishga qodirdir.
- 5 Yoshlar va bolalar tashkilotlari, "uchinchi sektor" tarkibida istiqbolni belgilovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Yoshlarga nisbatan davlat sektorining munosabati uning kelajagini belgilaydi. Yoshlarga va bolalarga nisbatan hokimiyat olib borgan siyosatning qanchalik ularga qaratilgani shunchalik ularning erkin va vatanparvar bo'lishini belgilaydi. Aynan shu jixat davaltning jamiyatning kelajigidir.

- 6 Faxriylar va nogironlar tashkilotlari, davlat va jamiyatning naqadar insoniyligini o'zligini anglashga intilishini, jamiyatda qadriyatlarning qay darajada qadirlanishini ko'rsatgan xolda Prezident I.A.Karimov tairi bilan aytganda "Tarixiy o'tmishsiz kelajak yo'q" iborisini isbot dalili bo'ladi.
- 7 Ilmiy texnikaviy jamiyatlar, xar bir davlat o'z kelajagini kecha bugun ilm fan rivoji bilan yuksaltira olganligi barchaga malumdur. Bugungi kunda nufuzli va hurmatli davlatlar birinchi galda kuch qudrati ila emas balki jamiyat a'zolarining aqli farosati bilan belgilanmoqda. Xalqaro termin sifatida olingan "I .G." – (intelligence quotient - aqliy rivojlanish koefitsienti) deyarli kegingi barcha xarakatlarga xam taluqlidir.
- 8 Madaniy, ma'rifiy, ma'naviy jamiyatlar, markazlar, birlashmalardir. Insonlar birligi yashaydigan barcha jamiyatlarga ta'luqli bo'lib insonni boshqa maxluqotlardan ajralib turishi omilidir. Bunga nafaqat kishilar ongliligi balki qalbining mazmuni va moxiyatidan kelib chiqadigan moxiyati kiradi. Zero inson qalbi uning o'zligini belgilovchi asosiy omildir.
- 9 Fizkultura va sprot jamiyatlari "sog' tanda sog'lom aqil" iborasining mazmuni kishilarni doimo o'z umrini o'z sog'lig'ini qadirlashga chaqirgan. "Nafsni jilovalash" qanchalik ruxiy xolatga moil bo'lsa shunchalik kishi tanini nazorat qilishga xam bog'liqdir. Tan solig'i doimo aqil sog'lig'iga poydevordir shu bois fizkultura va sprot jamiyatlari olib boradigan faoliyat individual xolat bo'lsada jamiyatning mustaxkamligini belgilaydi.
- 10 Ko'ngilliy jamiyatlar, ijtimoiy uyushmalar bularning barchasi o'z xarakati bilan davlat vakolatidagi faoliyatini kuchaytirib, hokimiyat nazaridan yoki etiboridan chetda qolishi mumkin bo'lgan muammolarni yuzaga olib chiqa oladi va xal qilishda faol ishtirok etadi. ("Bunyodkor" talabalar xarakati, "Vatanparvar" jamiyatlari).

Shuningdek "uchinchi sektor" tarkibiga yana bir qator tashkilotlar jumladan, jamg'armalar, assosatsialar, yurtdoshlar uyushmalari va fuqarolarning qator boshqa birlashmalari jamoa uyushmalari kiradi.

Bularning barchasi kishilarning birgalikda hayot kechirish va faoliyat olib borish tarixiy shakli asosida paydo bo'lgan insonlarning birlashgan yig'indisi asosida vujudga kelgandir. Jamiyatlar turli ijtimoiy qatlamlardan iborat bo'lganligi tufayli tabaqalar, turkumlar, vujudga kelgan, M: mulkdorlar, ziyoliylar, dehqonlar, yoshlar, ayollar, qariyalar va boshqalardir. Bunday bo'linish jamiyatlar ijtimoiy iqtisodiy mohiyatidan, tabiiy turkumlanish va turli xil imkoniyatlarga ega bo'lish tartibidan kelib chiqib adolat tarozisini turli pallalarga turlicha joylashtiradi. Oqibatda ijtimoiy adolat buzilgandek bo'ladi. Bu adolat buzilishi "sarobini" to'g'ri ko'rsatishda va adolat tartibini ijtimoiy tenglik asoslarga keltirishda "uchinchi sektor"ning urni, ijtimoiy sherikchilikni tashkil etish va rivojlantirishda ro'li juda kattadir.

Adolatli jamiyatni tashkil etishda insonlar manfaatli guruxlarining ijtimoiy xatti xarakatlarini belgilashda kishilar manfaati va ehtiyoji asosiy omildir. Bunda manfaatlar bilan uyushish va birlashish kishilar fazilatiga xos xolatga aylandi va oqibatda inson hulqi keltirib chiqaruvchi dushman xislat, shahsiy manfaatlarining jamoa manfatlari bilan almashinishi joriy bo'la boradi. Oqibatda ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy munosabatlar zahirida ijtimoiy xarakatlar, ijtimoiy harakatlar negizida nodavlat notijorat tashkilotlar va jamoa birlashmalari vujudga keldi. Ularning jamiyatlar siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishi oqibati jadallashib bordi.

Bugun jaxonnig nufuzli davlatlari shu jumladan Mustaqillikka erishgan O'zbekistonimizda sodir bo'layotgan demokratik tartiblarning modernizatsiyalash jarayoni uning zahirida kuchli fuqarolik jamiyati sari yo'naltirilgan isloxiy yo'nalishimiz davlat va jamiyatning "uchinchi sektori" o'rtasidagi ijtimoiy sherikchilik munosabatlarining kengayishi sodir bo'lmoqda. Davlat siyosiy tizimining vujudga kelishi va rivojlanib borishida manfaatlar guruxi uning a'zolari bo'lgan kishilar boshqa guruxlar bilan siyosiy institutlar yordamida o'zaro munosabatlarini ixtiyoriy tarkib topdirgan xolda mutanosiblashtirishi muqarrar adolatli jamiyatga olib borishini aytish mumkin.

Albatta buning negizida ijtimoiy adolat yotishi kerak, bunda birinchi galda ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilikning bo'lishi zarurati, ikkinchidan, jamiyat individlarining erkin va shaxsiy mustaqilligi kafolatlari talab etiladi. Uchinchidan, davlat xokimiyatining yagona manbayi xalq bo'lib u o'z suvereniteti va ustuvorligiga ega bo'lishi shart, to'rtinchidan, fuqarolarning davlat va jamiyat faoliyatining barchasidan xabardor bo'lishi talab etiladi. Beshinchidan, ijtimoiy fikr va so'z erkinligi bo'lishi sharti, shuningdek ettinchi, qonunlarning adolatli bo'lishi va ularnig jamiyat qonunchiligida ustinligi so'zsiz bo'lishi talab etiladi. Shundagina Nodavlat va notijorat tashkilotlari va jamoa birlashmalari faoliyati jamiyat subuti va talabi darajasida bo'la olishiga erishish mumkin.

“Uchinchi sektor”ning ijtimoiy moxiyatiga qaralsa jamiyatning barcha jabha va hayotiy zarur jarayonlarida ishtirok etishi va o'z tasirini o'tkaza olish imkoniyatlari mavjud ekanligini ko'ramiz. Masalan, jamiyat siyosiy xayotidagi tartiblarga kirib borish shartlari, xokimiyat vakolatlarini nomarkazlashtirish orqali, xokimiyatlarni bo'linishlari natijasida, jamiyatda siyosiy plyuralizm va so'z erkinligini to'la qonli jariy etilishi tufayli, Davlat ishlarida bevosita va bilvosi fuqarolarning ishtirok etishiga keng legitim yo'l ochish va nixoyat yana qonun ustivorligi va uning oldida barchaning tengligi tamoili negizida.

Ko'rinib turibdiki bugungi kunda sodir etilayotgan siyosiy isloxatlarning keng qamrovli joriy bo'lib borishi “uchinchi sektor” tashkilotlarini sekin asta jamiyat boshqaruvi tamon ko'tarib boradi. Inson sodir etayotgan isloxiy o'zgarishlarning bir yoqlama olib borilshi benuqson sodir bo'ladi deb aytish xatodir. Bu kamchilikni bartaraf etib borishda yana o'sha “uchinchi sektor”ning imkoniyatlaridan yani jamiyat a'zolarining xayotiga bevosita kirib borish vositalaridan foydalanish mumkin. Kishilarni jamiyatga nisbatan munosabatini mutadillashtirishda, ma'naviy asoslar tasiri kattaligini Prezident I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”¹ asarida to'liq bayot etganlar. Bunda birinchi galda jamiyat a'zolari mafkuraviy jixatdan erkin va bir mafkuraning tazyiqi ostida bo'lmasliklari shartidir. Ikkinchidan jamiyatda na faqat fikr yoki

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият -енгилмас куч. Тошкент 2008 йил.

soʻz erkinligi balki etiqod vijdon erkinligi boʻlishi zarur, bunda fuqarolik jamiyati institutsional organlari juda katta ish xududiga egadirlar. Shundan soʻngina jamiyat sekin asta tamaddunga, yuksak madaniyatga ega boʻlib boradiki, bunda sivilizatsiya talablari, madaniyatlilik va axloqlilik davlat tamonidan emas, jamiyat aʼzolari xayot extiyojiga aylanganlik talablaridan kelib chiqqan xolda sodir boʻladi.

Yuzaki qaraganda bu fikirlar “utopiyaga” oʻxshab koʻrinadi, ammo insoniyatning tarixiylik rivojlanish darajasiga qarab bu xayol emas balki xayot ekanligini tushinasan.

Fuqarolik jamiyati tashkiliy jixatlarining birinchi galdagi vazifasi, eng koʻzga koʻringan tarafi bu siyosatdir. SHunda biz fuqarolik jamiyatining samarali ish olib borayotgan institutsional tashkilotlaridan birini ayta olishimiz mumkin, bu siyosiy partiyalardir. Dunyo tajribasi, tarix voqeyliklari shu shakildagi “uchinchi sektor” tashkilotlaridan birining faoliyati naqadar jamiyatlar siyosiy tizimlarini oʻzgartirib yuborganini aytish mumkin. Xususan Oʻzbekistonimizning mustaqilligi davriga 24 yil boʻlgan boʻlsada siyosiy partiyalarning faoliyati, bundan ikki yuz yil avval bunday oʻzgarishlarni oʻz jamiyatlarida boshlagan Yevropa, AQSH kabi davlatlar tartibini olib kirayotganimizni ayta olamiz. Demak bunday tizim jamiyat aʼzolari mentaliteti yoki maʼrifiy darajasiga bogʻliq boʻlmagan xolda fuqarolik jamiyati institutsional organi sifatida kirib kelishi mumkin ekan.

Siyosiy partiyalarning xokimiyatga intilishi, undan oʻz aʼzolari manfaatlari va extiyojlari uchun foydalana olishi shuningdek uni bevosita va bilvosita nazorat qila olish imkoniyatlari keng ekanligini koʻramiz. Partiyalar na faqat xokimiyat uchun kurash yoki faqat yuqoriga intilish balki jamiyat aʼzolari bilan, ular partiya aʼzosi yoki aʼzosi emasligidan qaʼtiy nazar, yuzma-yuz ishlash vostitalari va imkoniyatiga egadir. Fuqarolarning fikrlarini oʻrganish orqali davlat siyosiy dastur va rejalarini ishlab chiqishga va aksincha davlat reja va dasturlarini ularga yetkazish va tushintirib shakillantirish qudratiga egadir. Bunda partiyalar jamiyatning yiriq qatlamlarini birlashtirish va faollashtirish, ularni quch quvatini birlashtirgan xolda jamiyat vazifalarini integratsiyalash vazifasini bajara oladi. Boshqa, turli jamoatchilik tashkilotlari tuzish, yoshlar oqimini shakillantirib

tashkilik etakchilik qilish, jamiyatga zaruriy qadrlar tayorlash ishini joriy qilish, ularni jamiyat boshqaruv mansablariga olib chiqish kabi funksiyalarni xam aytish mumkin.

“Uchinchi sektor” tashkilotlarining birinchi navbatda institutsional tarifiga yondoshilsa ikkinchi fursatda uning o‘z a‘zolarining manfaatlaridan kelib chiqib boshqa guruxlar bilan o‘zaro munosabatlarda, sodir etiladigan va amalga oshirilishi kerak jarayonlarni kelishuvini ixtiyoriylik asosida birlashtirish mumkinligina aytish zarur. Nodavlat notijorat tashkilotlari aksariyat xollarda o‘z a‘zolari manfaatlarini ifoda etgan xolda, bir yoki bir necha zaruriy muammolarga qaratilgan faoliyat tashkil etadi. Bu o‘z o‘zidan davlat ichki tizimidagi muvozanatni saqlashga va muammolarni sekin asta albatta bartaraf etishga qaratilgan yo‘nalish sari etaklaydi. O‘z a‘zolari bilan ishlashda individuallik bularning xar biridagi asosiy tamoiyillardan biridir, negaki xar bir a‘zo avvalo o‘z manfaati va extiyojlari tufayli bu yerga kelganligini esdan chiqarmaydi.

Bularnin barchasi fuqarolik jamiyati institutsional organi talablaridan kelib chiqqan xolda jamiyat a‘zolarini birlashtira oladi. Tashkilotga yoki jamiyatga majbur qilib xek kim tortilmasligi va undagi a‘zolikning ixtiyoriligi, moddiy yoki biron bir tezda sodir bo‘ladian balandparvoz vadalarining yo‘kligi manfaatlari bir kishilarni birlashishga va ularning manfaatlari va extiyojlarini bir tizimga keltirishga olib boradi. Tizimli g‘oya va fikirni shakillantirilishi oqibatida tashkiliy ishlar ichki va tashqi vazifalar dasturiy shakillari tuzilishiga katta yo‘l ochadi. Jamiyatga zaruriy bo‘lgan xaqqoniy va to‘g‘ri kommunikativ axborot tizimini shakillantirib nojo‘ya turli tuman mish mishlardan saqlaydi. Eng muxim fazilatlardan biri va asosiysi a‘zolarining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma‘naviy madaniyatlarini muloqot va munosabat madaniyatini shakillantirishda misilsiz imkoniyatlarga egadir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki bir tarif berishga xarakat qilgan va yangi ilmiy terminalogik atama sifatida ishlatishga kirgan “uchinchi sektor” organlari fuqarolik jamiyati kurilishida institutsional organ sifatida keng tushinchani kamrab oladi. Uning jamiyat qurilishida, yangilanishida, modernizatsion rivojlanishida,

siloxiy ko'tarilishlarida o'rni cheksiz imkoniyatlarga egadir. Faqat bu organ va tashkilotlarning davlat organlari bilan qa'tiy ajratib olingan xolda bilishimiz talab etiladi. Negaki davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati institutsional tashkilotlari o'rtasida ijtimoiy sherikchilik negizida bir maksad yo'lida ish olib boradiyu, ammo xar biri o'z funksiyasini aniq bilib bajargan xolda xaqqoni sherikchilik bo'ladi. Qilinayotgan ish bir maqsad bir ammo uni bajarish uchun xar birining o'ziga yarasha vazifasi funksiyasi, xissasi, imkoniyatlari, tamoillari mavjuddir. Bu talablardan kelib chiqib bajarilgan ishgina aniq maqsad sari bora oladi. Maqsadimiz fuqarolik jamiyati qurish bo'lar ekan "uchinchi sektor" ning funksional xolatini to'g'ri tushinishimiz zaru.

1.2 Ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi uzviy bog‘liqligi.

Davlat bilan «uchinchi sektor» nomini olgan fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy sherikchiligi orkali mamlakatda demokratik isloxoatlar chuqurlashtirilmokda, jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy va iqtisodiy muammolar xal etilyapti. Ayni paytda bunday sheriklik jamiyatning davlat bilan o‘zaro samarali alokasini ta‘minlash, odamlarning kayfiyatini, mamlakatda kechayotgan o‘zgarishlarga munosabatini aniqlashning muxim vositalaridan biriga aylanmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini ragbatlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Konunchilik palatasi va Senati Kengashlarining «Nodavlat-notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari tug‘risida»gi qo‘shma qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Jamoat fondi va Parlament komissiyasi tashkil etildi. Parlament komissiyasi tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, Senat a‘zolari, O‘zbekiston Respublikasi Adliya va Moliya vazirliklari tegishli tuzilmalari, nufuzli nodavlat-notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari vakillari kiradi.

Jamoat fondi mablaglari bevosita nodavlat-notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga ularning murojaatlari asosida va Parlament komissiyasi qarorlariga muvofik subsidiyalar, grantlar, ijtimoiy buyurtmalar tarzida ajratiladi. Nodavlat-notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash uchun byudjet mablaglari Parlament komissiyasining taqdimi buyicha O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetini tayyorlash, ko‘rib chikish, muxokama etish va tasdiklash muddatlarida ajratiladi.

Jamoat fondi tomonidan ijtimoiy axamiyatga molik loyixalar kuyidagi yunalishlar buyicha moliyalashtiriladi:

Birinchi yunalish, nodavlat-notijorat tashkilotlarning axolini ish bilan ta‘minlashning muxim yunalishi sifatida kichik va oilaviy biznes, xususiy

tadbirkorlik va kasanachilik xamda xalk xunarmandchiligini rivojlantirish buyicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlardagi ishtirokini faollashtirish.

Ikkinchi yunalish, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, yoshlarda sog'lom va mustaxkam oila qurishga intilishni shakllantirish, ularni giyoxvandlik, axloksizlik xamda tashqaridan kirib keluvchi «ommaviy madaniyat» taxdidlari va ta'sirlaridan asrab qolishga doir kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Uchinchi yunalish, axolining ekologik savodxonligini oshirish, ekologik nokulay xududlarda, shu jumladan, Orol buyida axolini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash. Bunda suv, yer resurslaridan okilona foydalanish, suv ob'ektlari va xavoning ifloslanishi darajasini kamaytirish buyicha targ'ibot ishlarini tashkil etish.

To'rtinchi yunalish, nogironlarga ta'lim berish va tarbiyalash uchun qulay sharoitlar yaratish, ularni xar xil kasblarga o'qitish, xukukiy bilimini oshirish, ularning jamiyatlari va uyushmalarini moddiy-texnik jixatdan mustaxkamlash, axolining ijtimoiy ximoyaga muxtoj qatlamini qo'llab-quvvatlash.

Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar muttasil ko'payib bormoqda. Agar 2008 yilda mazkur soxaga davlat byudjetidan 2,4 milliard so'm ajratilgan bo'lsa, 2009 yilda bu ko'rsatkich 4,0 milliard so'm, 2010 yilda 4,5 milliard so'm va 2011 yilda 5 milliard so'mni, 2012 yilda esa 6,0 milliard so'mni tashkil etdi. Umuman, fukarolik jamiyati institutlari takdim etgan turli ijtimoiy loyixalarni amalga oshirish uchun Oliy Majlis xuzuridagi Jamoat fondi tomonidan 22 milliard so'mdan ortik mablag ajratildi.

Parlament komissiyasi tomonidan fukarolik jamiyati institutlari faoliyatining tashkiliy-texnikaviy va iqtisodiy negizini mustaxkamlash uchun davlat byudjetidan ajratilayotgan moliyaviy mablaglar ochik, oshkora, anik yo'naltirilgan va eng muximi, demokratik asosda taqsimlanishi ta'minlanmoqda. Bunda Jamoat fondi mablaglari nodavlat-notijorat tashkilotlarining iqtisodiy mustakilligini mustaxkamlash, axolini ijtimoiy faolligini oshirish va jamiyatda ijtimoiy

sharikchilikni kuchaytirishga qaratilgan loyixalariga davlat grantlari, ijtimoiy buyurtmalari va subsidiyalari shaklida ajratiladi. Shu bilan birga 2011 yilning o'zida amalga oshirilgan 230 ta loyixa doirasida nodavlat-notijorat tashkilotlari va fukarolik jamiyati institutlarining moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash uchun 1,5 ming dona komyuterlar, axborot-kommunikatsiya va turli xildagi jixozlar xarid qilish uchun xam mablaglar ajratildi.

Davlatimiz raxbari tomonidan ilgari surilgan Mamlakatimizda demokratik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fukarolik jamiyatini shakllantirish konsepsiyasida «Kuchli davlatdan - kuchli fukarolik jamiyati sari» prinsipini faol izchil amalga oshirish, fukarolarning davlat va jamoat ishlarini boshqarishdagi ro'lini kuchaytirish, fukarolik jamiyati institutlari butun tizimini yanada rivojlantirishning asosiy vazifalari kursatib berilgan.

O'zbekiston tarakkiyotining xozirgi bosqichida nodavlat- notijorat tashkilotlari va boshka fukarolik institutlari ro'lini yanada kuchaytirish fukarolik jamiyatini shakllantirish, demokratlashtirish va mamlakatimizni jaxon xamjamiyatiga integratsiyalash buyicha strategik maqsadlarga erishishda xal qiluvchi omil bo'lmoqda. Buni xisobga olgan xolda Konsepsiyada fukarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish, amalga oshirilayotgan demokratik isloxotlarning oshkoraligi va samaradorligining xukukiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari belgilangan. Jumladan, ishlab chikilayotgan «Ijtimoiy sheriklik turisida»gi qonunning qabul qilinishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni xal etish, mamlakatimiz axolisi turli qatlamlarining xuquq va erkinliklari, xamda qonuniy manfaatlarini ximoya qilishda nodavlat-notijorat tashkilotlarining davlat organlari bilan o'zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkiliy-xuquqiy mexanizmlarni takomillashtirish maksadlariga xizmat kiladi.

Davlat xokimiyati va boshkaruvi organlari tomonidan qonun xujjatlarining ijro etilishi ustidan fukarolik jamiyati institutlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali xuquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan «O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati tug'risida»gi qonunni qabul

qilish xam ko'zda tutilgan. Ushbu qonunda jamoatchilik nazoratining turlari, shakllari va sub'ektlari, nazorat predmeti, uni amalga oshirishning xuquqiy mexanizmlari, shuningdek mazkur soxada amaldagi qonun xujjatlarini ijro etmagani uchun mansabdor shaxslarning ja-vobgarligi shartlari belgilab quyiladi.

Shu bilan birga, «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik tug'risida» gi kodeksiga jamiyat va davlat qurilishi, xududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli soxalarida nodavlat-notijorat tashkilotlari xuquqlarini belgilab bergan qonun xujjatlari talablarini buzganlik uchun davlat organlari mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirishni nazarda tutadigan uzgartish va qo'shimchalar kiritilishi mo'ljallangan.

«Konsepsiya»da sog'likni saqlash, atrof-muxitni muxofaza qilish, axolini, ayniksa, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ijtimoiy ximoyaga muxtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va shu kabi muxim ijtimoiy axamiyatga molik boshka masalalar bo'yicha davlat dasturlarini amalga oshirishda nodavlat-notijorat tashkilotlari ishtirokining xuquqiy asosini yaratib beradigan qonun xujjatlari majmuasini ishlab chiqish xam dolzarb vazifalardan biri ekanligi ko'rsatilgan.

Davlat bilan fukarolik jamiyati o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni yanada takomillashtirishda xorijiy mamlakatlarda to'plangan tajriba xam diqqatga sazovor ekanligi shubxasiz. Shuning uchun mazkur kitobda, fikrimizcha, O'zbekiston uchun dolzarb xisoblangan davlat organlari bilan fukarolik jamiyati o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikning xuquqiy asoslari, bu manfaatli xamkorlik mexanizmlari o'z ifodasini topgan. Ular umumlashtirilgan xolda quyidagicha guruxlangan:

- birinchidan, ijtimoiy sheriklik buyicha xalkaro tajribaning umumiy taxlili;
- ikkinchidan, fukarolik jamiyati rivojlanishining xuquqiy asoslari va ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari;
- uchinchidan, davlat bilan fukarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar;
- to'rtinchidan, davlatning jamoatchilik bilan maslaxatlashish mexanizmlari.

Har bir bo'limida xalqaro, amaliyot tadqiq etilgan xamda qonunchilikni rivojlantirishning asosiy tendensiyalari, erishilgan muvaffakiyatlar va mavjud

muammolar ochib berilgan. Shu bilan bir qatorda xar bir bo'limda qonunlar va boshqa qonunchilik xujjatlari, siyosiy xujjatlar, shuningdek ayrim xalqaro xujjatlar (bitimlar, shartnomalar) namunalari keltirilgan. Fikrimizcha, bu ko'rib chiqilayotgan mexanizmlarning amal etishi xamda ularning davlat bilan fukarolik jamiyati o'rtasidagi xamkorligini mustaxkamlashdagi ro'lini mufassal tasavvur qilish imkonini yaratadi.

2.2 Mustaqil O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish strategiyasi va taktikasi.

Erkin fuqarolik jamiyatini qaror toptirish O'zbekiston xalqining ulug'vor maqsadlaridan biridir. Konstitutsiyaning mazmun va mohiyatidan shu narsa qat'iy ayonki, mamlakatimizda shakllantirilayotgan jamiyat — demokratiya va adolat prinsiplariga tayanuvchi erkin insonlar jamiyati bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: "Biz fuqarolik jamiyati qurishga intshoqsamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir". Prezident yana quyidagilarga e'tiborni qaratgan edi: "Biz uchun fuqarolik jamiyati -- ijtimoiy makon. **Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda, boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtaning o'zida amal qiladi"**

Eng umumiy tarzda lo'nda ta'rif beriladigan bo'lsa, fuqarolik jamiyati — ijtimoiy hayotning davlat ta'siri va aralashuvidan, ma'muriy tazyiqlardan xoli bo'lgan hamda insonlarning xususiy turmush sohasini tashkil etuvchi munosabatlar majmuidir.

Hozirgi davrda falsafiy, siyosiy va yuridik adabiyotlarda fuqarolik jamiyatini ta'rif va tavsif etishga faol harakat qilinmoqda. Bu ta'riflardan ba'zilarini talqin etaylik.

Fuqarolik jamiyati — davlatdan mustaqil va undan xoli munosabatlar va vositalar tizimi bo'lib, u shaxs hamda jamoatlarning ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayot sohalaridagi xususiy manfaat va ehtiyojlarini amalga oshirishga sharoit yaratadi.

Fuqarolik jamiyati aksariyat hollarda insonlarning xususiy manfaat va ehtiyojlari sohasi tarzida ta'riflanadi. Fuqarolar huquq va erkinliklarining asosiy ko'pchilik qismi mana shu xususiy hayot sohasida ro'yobga chiqariladi. Biroq bu shaxslarning ijtimoiy hayotdan ajralib qolganligini, begonalashtirilishini anglatmaydi.

Fuqarolik jamiyati — shaxslarning oddiy yigʻindisi emas, balki ular oʻrtasidagi rang-barang aloqalar, hamkorlik, hamjihatlikning ifodasidir. Mazkur mushtaraklik va hamjihatlik tashkiliy institutsiyaviy koʻrinishga ega boʻlib, u turli ijtimoiy kuchlar, nodavlat tashkilotlar, birlashmalar mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Fuqarolik jamiyati nihoyatda murakkab hamda serqirra ijtimoiy hodisadir. Shu bois uni uch asosiy jihat, uchta yoʻnalish boʻyicha:

- 1) iqtisodiy jihat;
- 2) siyosiy jihat;
- 3) maʼnaviy-axloqiy jihat boʻyicha taʼriflash mumkin.

Birinchi jihati. Fuqarolik jamiyati xususiy mulkchilikka keng yoʻl beruvchi va unga asoslanuvchi bozor iqtisodiyoti munosabatlariga, erkin iqtisodiy faoliyat taʼminlangan shart-sharoitga tayanadi. Aynan xususiy mulkchilik muhiti va munosabatlari qaror topgan jamiyatda shaxsning mulkiy mustaqilligi, iqtisodiy faoliyat yuritishdagi erkinligi taʼminlanadi. Xuddi shu asnoda shaxs davlat hokimiyatiga nisbatan avtonom, mustaqil mavqeni egallaydi. Davlat xususiy hayot sohasiga, shaxs va tashkilotlarning qonuniy iqtisodiy faoliyatiga aralashmasligi lozim. Prezident I.A.Karimov aytganidek, "davlatning qonunlari inson va fuqaro huquklarini kamsitmasligi lozim". Bu talab avvalo iqtisodiy ishlab chiqarish, xususiy tadbirkorlik sohasiga oiddir.

Fuqarolik jamiyati konsepsiyasini yaratishga katta hissa qoʻshgan nemis faylasufi Gegel, bu jamiyatni burjuacha ishlab chiqarish munosabatlari majmui sifatida tushungan. U ikki asosiy prinsipni ajratib koʻrsatgan:

birinchidan, shaxslar oʻz xususiy manfaatlaridan kelib chiqib harakat qiladilar;
ikkinchidan, insonlar shunday ijtimoiy munosabatlar tizimini vujudga keltiradilarki, bunda har kim boshqa kimsaga bogʻliq boʻladi.

Xususiy mulkchilikka asoslangan ijtimoiy struktura boʻlmish fuqarolik jamiyati bozor iqtisodiyoti munosabatlari tizimidan iboratdir. Bunday munosabatlarga ishlab chiqarishdagi raqobat va unda hokimiyatning maʼmuriy aralashuvini cheklash orqali erishiladi. Fuqarolik jamiyati insonning ijodiy faolligini namoyon etishga yoʻl ochuvchi munosabatlar shakllangan taqdirda zohir boʻladi.

Buyuk fransuz inqilobining manifesti - 1791 yilgi Inson va fuqaro huquqpari deklaratsiyasida ham xususiy mulk muqaddas va daxlsiz deb e'lon qilingan. Feodalizmning ashaddiy dushmani bo'lgan yakobinchilar esa xususiy mulkni yangi jamiyatning, ya'ni fuqarolik jamiyatining birdan-bir asosi deb bilganlar. Tarixdan ma'lumki, xususiy mulk nafaqat jamiyati turli qatlamlarga ajratgan, balki ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan tashabbusni rag'batlantirgan, hokimiyatga nisbatan mustaqil (avtonom) tuzilmalarni vujudga keltirgan.

O'zbekistonda ham xususiy mulkchilikka asoslangan iqtisodiy munosabatlar tizimi qaror topmokda, tadbirkorlikka, kichik va o'rta biznesga keng yo'l ochilib, tegishli tashkiliy va huquqiy mexanizmlar vujudga keltarilmoqsa.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolik jamiyatining qaror topishini xususiy mulkning qat'iy mavqega ega bo'lishi bilan bog'laydi. Shu asosda hozirgi paytda jamiyatda keng qo'lamda xususiylashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda islohotchi davlatning demokratik fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan manfaatdorlik sabablari quyidagilardan iborat:

— mamlakatning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari olg'a siljish yo'llari va usullari xususida fuqarolar kelishuviga erishish to'g'risida norasmiy ijtimoiy shartnoma tuzish va uni ro'yobga chiqarishda islohotchi davlat uchun sherik vujudga keltiriladi;

— fuqarolik jamiyati o'z institutlari orqali shaxsning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etishini ta'minlagan hodsda, davlatda vakillik demokratiya-sining va mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy tizimning asosi hisoblanadi;

- O'zbekiston xalqi fuqarolik institutlari va mexanizmlari, avvalo, saylov tizimi orqali o'zining siyosiy yuksalishi va hayotiy muhim milliy manfaatlarini ifodalash uchun barqaror shart-sharoitlar yaratmoqda;

— fuqarolik jamiyati shaxs va jamiyat, fuqaro va davlat, etnik va konfessional jamoalar, ijtimoiy-demografik guruxlar hayotiy muxim manfaatlarining o‘zaro maqbul muvozanatidan kelib chiqqan hodsa quriladi;

— demokratik jamiyat fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy faolligiga asoslangan. O‘z navbatida, uning o‘zi turmushning barcha sohalaridagi islohotlar jarayonida bunday faollikning o‘sib borishini izchil rag‘batlantirib boradi va davlatning byurokratlashuvi, uning institutlari fuqarolarning hayotiy muhim manfaatlaridan uzilib qolishi xavfiga qarshi turadi.

"Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida, — deydi Prezident I.A.Karimov, -- davlat iqtisodiy erkinliklarning kafolati bo‘ladi. Ayni shu tufayli davlat iqtisodiyotga o‘zining tartibga soluvchi ta’sirini maqbul ravishda o‘tkaza oladi".

Ikkinchi jihati. Siyosiy nuqtai nazardan baholaganda fuqarolik jamiyatidagi siyosiy tizim va siyosiy boshqaruvning mazmun-mohiyatini xuquqiy davlatchilik ifoda etadi. Boshqacha aytganda, huquqiy davlat fuqarolik jamiyatining siyosiy mohiyatini, siyosiy shaklini tashkil etadi. Bu ikki hodisaning o‘zaro munosabati shakl bilan mazmunning o‘zaro aloqadorligini aks ettiradi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, fuqarolik jamiyati to‘la ma’noda mavjud bo‘lishining shakshubhasiz sharti huquqiy davlatning mavjudligidir. Va, aksincha, huquqiy davlat faqat fuqarolik jamiyatidek ijtimoiy makonda qaror topishi va faoliyat yuritishi mumkin¹.

Fuqarolik jamiyati bilan huquqiy davlatning o‘zaro nisbatini iqtisod bilan siyosatning nisbati tarzida izoxlash o‘rinli bo‘ladi. Buni O‘zbekiston misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Zero, iqtisodiy islohotlar tegishli demokratik siyosiy tuzilmalar, institutlar mavjud bo‘lishini taqozo etadi,

Mamlakatimizda mulk shaklini o‘zgartirish, xususiylashtirish jarayonlarini amalga oshirishga qaratilgan davlat tuzilmalari vujudga keltirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish qo‘mitasi tashkil etilib

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. Т.: Ўзбекистон, 1998.115-бет.

(1992 yil), u mamlakatda xususiylashtirishni amalga oshirish bilan shug'ullanib kelmokda. Prezidentning 1992—1993 yillarda qabul qilingan o'ttizdan ortiq farmonlari bilan davlat mulkchiligiga asoslangan o'nlab vazirlik va davlat qo'mitalari boshqa mulk shaklidagi konsern, assotsiatsiya, uyushma va jamg'armalarga aylantirildi. Jumladan, Prezidentning 1992 yil 7 noyabr) farmoni bilan Uzbekiston Respublikasi paxtachilik vazirligi zahirida "O'zbekiston paxtani qayta ishlash va paxta mahsulotini sotish davlat aksiyadorlik assotsiatsiyasi», Mahalliy sanoat vazirligi isloh etilib, uning o'rnida Prezidentning 1992 yil 3 sentyabrdagi farmoni bilan "Mahalliy sanrat" davlat korporatsiyasi tashkil etiddi. Shuningdek, "O'zbeksavdo" assotsiatsiyasi (1992 yil 5 may farmoni), "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi (1992 yil 28 yanvar farmoni) tashkil topdi va hokazo.

Hukumat iqtisodiyotni boshqarishning bozor usullariga o'tmoqsa. Vazirlar Mahkamasi apparati bevosita sohaviy ma'muriy boshqaruvdan qaytib, boshqaruvning funksional tizimiga o'tdi. Buning ma'nosi shuki, Vazirlar Mahkamasi xo'jalik yurituvchilar faoliyatiga aralashmaydi, iqtisodiyotni davlat yo'li bilan boshqarmaydi. Buning o'rniga u iqtisodiyotni bozor yo'lga o'tkazishning umumiy strategiyasini ishlab chiqadi, iqtisodiy jarayonlar va iqtisodiy komplekslar faoliyatini uyg'unlashtirish va muvofiklashtirish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, xo'jalik yuritish shakllarini takomillashtirish, tarkibiy va institutsional qayta o'zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish, tadbirkorlik va raqobatchilikni rivojlantirish bilan shug'ullanadi.

Fuqarolik jamiyatining siyosiy tavsiflanishi faqat davlat tuzilmalarining rivojlantirilishidan iborat emas. Demokratiya ravnaq topishi uchun fuqarolik jamiyatida xurfikrlilik, siyosiy plyuralizm ham qaror topishi zarur. Buning uchun jamiyatda tom ma'nodagi ko'ppartiyaviylik, jamoat va nodavlat tashkilotlarning keng qo'lamli tizimi, tadbirkorlarning ittifoqlari, uyushmalari, mexatkashlar mustaqil bir-lashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimi vujudga keltirilishi lozim, toki bu tuzilmalar davlat idoralari bilan teng huquqli munosabatlarga kirisha olsin.

Fuqarolik jamiyatining siyosiy tizimida ommaviy axborot vositalari alohida o'rin tutadi.

Taxlil yuritilayotgan jabhada huquqiy davlatning asosiy vazifasi inson va fuqaroning yuksak huquqiy maqomini ta'minlab berishdan iborat. Konstitutsiyaning 2-moddasida davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar, deb yozilgan. Buning ma'nosi shuki, davlat, uning idoralari avvalo fuqorolarning huquqlarini hurmat qilishlari lozim. Qonunda belgilangan fuqoroviy huquq va erkinliklar davlat idoralari va mansabdor shaxslar uchun muqaddas bo'lmog'i lozim. O'z fuqarolarining haq-huquqlarini ta'minlab bera olmagan davlat demokratik huquqiy davlat deb atalishi mumkin emas. Fuqarolar qonun oldida teng, hukuqning teng sub'ekti sifatida e'tirof etilishi zarur.

Fuqarolar va ularning uyushmalari davlat idoralari bilan muloqotda hukuqning teng sub'ektlari sifatida munosabatga kirishadilar. Basharti, bu teng huquqiy munosabatlarda tomonlardan birining huquqiga, manfaatiga putur etkazilsa, u sudga murojaat etishi va qonuniy asoslarda sud tartibida o'z huquqini tiklashga erishishi lozim. Huquqiy davlatchilikning muxdom tamoyillaridan biri ana shunday. Shunday qilib, huquqiy davlat nafaqat fuqarolik jamiyatini boshqaruvchi tizim, balki o'zini o'zi boshqaruvchi fuqarolik jamiyatiga bog'liq, uning manfaat va ehtiyojlariga bo'ysunuvchi tizim sifatida maydonga chiqadi.

Uchinchi jihati. Fuqarolik jamiyati chuqur ma'naviy, yuksak madaniy insoniy munosabatlar zamiriga tayanadi. Bu jamiyatning ma'naviy hayotida bir narsa ustuvorlik qiladi, ya'ni inson benihoya darajada ulug'lanadi, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadi, ular mo'tabar va muqaddas sanaladi. Bunda insonning qadr-qimmati, mexr-oqibat, axloqiy poklik, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi oliy qadriyatlar odamlar o'rtasidagi munosabatlarning belgilovchi mezoni sifatida maydonga chiqadi.

Demokratik islohotlar davrida ma'naviyatni yuksaltirishga asosiy e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Zero, ma'naviyat -- insoniyat ichki dunyosining ko'zgusi, tafakkuri, ongi va fikr yuritish tarzining mazmun-moxiyatini aks ettiruvchi yuksak ijtimoiy qadriyatdir. Insoniyat hamisha ezgulikka, ma'naviy

barkamollikka intilib yashaydi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatning yaqin kelajakdagi istiqboli ham yurtlarimiz qanday mavqeni egallashiga, qanaqa madaniy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni shior qilib olishiga bog'liq bo'ladi¹.

Fuqarolik jamiyatida erkinlik, qonun oldida barchaning tengligi, ijtimoiy adolatning ta'minlanishi hamma fuqarolarning ijodiy salohiyati va iste'dodining bevosita ro'yobga chiqarilishiga imkoniyat yaratiladi. Fuqarolik jamiyati huquq va adolat mezonlari bilan o'lchanadi. Huquq jamiyatning o'ziga xos "gumanistik imperativi" (insonparvarlik talabi), ya'ni insoniy-axloqiy qoidasi, ma'naviy mayog'i bo'lib hisoblanadi. Fuqarolarning o'zaro huquqiy munosabatidagi mavqei quyidagi prinsiplar asosida belgilanadi:

- 1) jamiyatning har bir a'zosi inson sifatida erkin va ozod bo'lishi;
- 2) har bir fuqaroning boshqa fuqaro bilan tengligi;
- 3) jamiyat har a'zosining fuqaro maqomidagi mustaqilligi.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, suveren davlatchilikni shakllantirishda madaniyatimiz sarchashmalariga, teran va ulkan ma'naviy merosimizga murojaat qilish, boqiy tarixiy o'tmishimizda mavjud bo'lgan barcha ezguliklarni yuzaga chiqarib, rivojlantirish borasida beqiyos imkoniyatlar ochildi.¹ O'tmish ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy boyligi chuqur mushohada etilib ijtimoiy ongimizga singdirilmoqda, shu orqali biz barpo etayotgan yangi fuqarolik jamiyati manfaatlariga xizmat qilmoqda.

Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, balki odil demokratik jamiyat barpo etmoqdamiz. Davlatchiligimiz adolat prinsiplariga tayanadi. "Adolatga intish — xalqimiz ma'naviyruhiy dunyosiga xos eng muxim xususiyat. Adolatparvarlik goyasi butun iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimiga singib ketish, ijtimoiy ko'maklashuv mexanizmida o'z aksini topishi kerak"¹.

Ma'naviy-madaniy saviya past bo'lgan jamiyatda adolat tantanasi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Biz barpo etayotgan fuqarolik jamiyatida adolat,

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. Т: Ўзбекистон, 1998. 397-бет.

haqiqat va insonparvarlik g'oyalari ustuvorlik qilishi lozim. Adolat bor joyda inson haq-huquqlari va erkinliklari to'la ta'minlanishiga umid bog'lash mumkin.

Shunday qilib, fuqarolik jamiyatining quyidagi asosiy belgilari va xususiyatlarini ko'rsatish mumkin:

1) jamiyat va shaxs ehtiyojlari tizimida faol ijobiy faoliyat va mehnatning roli aloxida mazmunga ega bo'lishi. Mehnatga asoslangan ijtimoiy ehtiyoj va manfaatlar tizimining qaror topishi;

2) jamiyat mazmuni, uning rivojlanish qonuniyatlari mohiyatining xususiy mulkchilik munosabatlari orqali belgilanishi;

3) xususiy mulk barcha mulk shakllari qatori ravnaq topishi va uni muhofazalashda qonunning, davlat hokimiyatining aloxida o'rin tutishi;

4) fuqarolarning yuridik jihatdan bir xil maqomga egaligi va qonun oldida tengligi. Jamiyatda adolatli sud tizimining qaror topishi va uning fuqarolarni himoyalovchi posbon idoraga aylanishi.

5) shaxsning xususiy hayoti va iqtisodiy faoliyatiga davlat aralashuvining qonun doirasida cheklanishi. Huquqiy davlatchilikning mavjud bo'lishi;

6) shaxsning davlat hokimiyatiga nisbatan mulkiy va iqtisodiy mustaqilligi;

7) davlat, davlat idoralari va fuqarolar huquqning teng sub'ekti sifatida munosabatga kirisha olishi, ularning sudda teng taraflar sifatida maydonga chiqolishi. Fuqarolar huquqlarini kafolatlash va ustuvor ta'minlash mexanizmlarining yaratilganligi;

8) fuqarolik jamiyatining tarkibiy institutlari, jumladan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimining mavjudligi;

9) jamiyatning yuksak ma'naviy-madaniy va axloqiy rivojlanganligi; insonlar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmat, iymon-insof doirasida, shaxs qadrini e'zozlash asosiga qurilganligi.

Shunday qilib, **fuqarolik jamiyati — har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an'ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so'zsiz ta'minlanadigan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati**

mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma'naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin demokratik huquqiy jamiyat.

O'zbekiston xalqi XXI asrga yuksak insoniy maqsadlar bilan, barqaror taraqqiyot, mustaxkam tinchlik va farovon hayotga erishish, adolat hamda erkinlik tamoyillariga asoslangan demokratik jamiyat qurish niyatida qadam qo'ydi. Kamil ishonch bilan ta'kidlash lozimki, yurtimiz dunyo hamjamiyatining barcha ma'rifiy davlatlari singari umumbashariy qadriyatlar qaror topadigan, inson qadri va huquqlari e'zozlanadigan hamda bezavol ta'minlanadigan, davlat idoralari va mansabdor shaxslar xalq manfaatlariga sadoqat bilan xizmat qiladigan, demokratiya tom ma'noda tantana qiladigan fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidan bormoqda.

Bunga yorqin dalil — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasidagi "O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari" mavzusidagi ma'ruzasidir¹. Davlatimiz rahbari o'z ma'ruzasida mamlakatimiz mustaqil rivojlanishi asosiy bosqichlarini atroflicha taxlil etdi, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari va tamoyillarini belgilab berdi. Prezident O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, davlat hamda siyosiy institutlar va nodavlat tashkilotlarni mustahkamlash, milliy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning dolzarb masalalariga aloxida e'tibor qaratdi.

"Bizning vazifamiz, — dedi Prezident IA.Karimov, — mamlakatimizni, jamiyatimizni demokratlashtirish hamda yangilash yo'lidagi harakatlarimizni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish va so'zsiz bu borada amalga oshirgan ijobiy ishlarimizni qat'iyat bilan davom ettirish, ularni xalqimiz orzu qilgan marralarga etkazishdir"¹².

¹ Халқ сўзи . 2002 йил 30 август.

² Ўша жойда.

Fuqarolik jamiyati sari sobit qadamlar bilan odimlab borish hamda yuqoridagi maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha iqqisodiy, ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy-huquqiy, ma'naviy-madaniy chora-tadbirlarni o'zida jam etgan mukammal dasturga ega bo'lish talab etiladi. Respublika Prezidenti mazkur dasturda aks etishi lozim bo'lgan vazifalar xususida to'xtalib, yurtimizda demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishning quyidagi ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatib o'tdi.

Birinchi ustuvor yo'nalish, eng muhim maqsad tengsiz oliy ne'mat — mustaqillikni bundan buyon ham asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash bo'lib qolaveradi. Mustaqillik biz uchun, avvalo, o'z taqdirimizga o'zimiz egalik qilish huquqi, kelajagimizni o'z qo'limiz bilan barpo etish, yurtimiz boyliklaridan faqat xalqimiz va Vatanimiz manfaatlari yo'lida foydalanish demakdir.

Bu o'rinda mustaqillik nafaqat huquq-imkoniyat, balki ayni vaqtda ulkan mas'uliyat ekanligiga e'tibor qaratish lozim. Mustaqillik o'z taqdirimiz uchun mas'ulliqsan tashqari, bizdan xalqaro hamjamiyat oldida zimmamizga olgan majburiyatlarga rioya etish va ularni bajarishni talab etadi. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi talablariga, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan me'yorlariga qat'iy amal qilib yashash mas'uliyatini so'zsiz yuklaydi.

Beshinchi ustuvor yo'nalish — fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti sifatida jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining mavqei va ahamiyatini keskin kuchaytirishdan iborat. Nodavlat va jamoat tashkilotlarining faolligini oshirish fuqarolarning xususiy hayoti sohasiga davlat aralashuvini kamaytirish, qonun vositasida cheklash bilan bog'liq. "Bu masalada davlatning ro'li, — deb ko'rsatdi I.A.Karimov,— avvalo, iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi ustuvor yo'nalishlarni aniqlashga, qabul qilingan qonunlar va huquqiy normalarning barcha tomonidan so'zsiz bajarilishini ta'minlashga, tashabbus va tadbirkorlikni rag'batlantirishga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida raqobat muhitini qaror toptirish uchun zarur va hammaga barobar bo'lgan shart-sharoitlar yaratishga qaratilmog'i darkor"¹

¹ Каримов И.А. асарлар тўплами 16- жилд. 135бет.

Taxlil etilayotgan yo‘nalishda jamoatchilik nazorati alohida o‘rin tutadi. Demokratik jamiyatda butun ijtimoiy-siyosiy hayot oshkora, jamoatchilik ko‘z o‘ngida va uning faol ishtirokida ro‘y berishi qonuniyatli holdir. Shu bois davlatimiz rahbari o‘z ma‘ruzasida ta’kidlaganidek, qonunlar ijrosini ta’minlash, mamlakatda qabul qilingan va amalda bo‘lgan me‘yoriy hujjatlarni hayotga joriy qilishda davlat hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Biz "Adolat -qonun ustuvorligida" degan hayotiy tamoyilga amal qilib yashashimiz zarur. Biz uchun bundan boshqa yo‘l yo‘q.

Hayotimizni erkinlashtirish yo‘nalishlarining yana bir muhim yo‘li markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tkaza borishni ta’minlashdir. Amalda bu vazifani bajarishga allaqachon kirishganmiz. Ana shu yo‘dda sobitqadamlik bilan davom etishimiz lozim. Tahsinga loyiq jihat shundaki, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat va nodavlat tashkilotlarini rivojlantirish hamda ular faoliyatining huquqiy asoslarini mustaxkamlash

davlatimizning doimiy diqqat markazidadir. Shuningdek, bu sohadagi muxim yo‘nalish davlat bilan jamoat birlashmalarining ijtimoiy sheriklik asosidagi hamkorligini rivojlantirish, bunday aloqalarning samarali usul va shakllarini vujudga keltirishdan iborat. TTTu munosabat bilan "Jamoat birlashmalari to‘g‘risida"gi qonunga zarur o‘zgartishlar kiritish, "Ijtimoiy jamg‘armalar to‘g‘risida", "Nodavlat notijorat tashkilotlari va uyushmalari to‘g‘risida", "Xayriya faoliyati to‘g‘risida"gi qonunlarni qabul qilish ham muxim ahamiyat kasb etadi¹.

Ettinchi ustuvor yo‘nalish - - bu barcha islohotlarning pirovard natijasi inson manfaatlariga bo‘ysundirilganligi, ularga baho berishning asosiy omili va mezonini inson ekanligidir. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan oq insonparvar kuchli ijtimoiy siyosat olib bormoqsa. Bu siyosatning mazmuniga chuqurroq kirib borilsa amin bo‘lish mumkinki, mamlakatda ijtimoiy infratuzilmani, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarini jadal rivojlantirish, nafaqa

¹ Ўша жойда.

bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish, aholini ekologik va boshqa xavf-xatarlardan muhofaza etish, odamlarning sotsial soha bo'yicha talab va ehtiyojlarini qondirish yo'lida muntazam ravishda ish olib borilmoqsa. Ushbu siyosat xalq ommasi tomonidan mamnunlik bilan qo'llab-quvvatlanmoqsa.

Inson ehtiyojlari nafaqat iqqisodiy soha bilan, balki ma'naviy qadriyatlar bilan ham bog'liqdir. Shu bois fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi ma'naviyat va ma'rifat sohasida shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzluksiz ish olib borishdan iborat. Ushbu faoliyatning markazida **ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat** kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i kerak, deb ta'kidladi Prezident. Mazkur uch buyuk qadriyatni xalqimiz chuqur anglab, asrlar davomida hamisha e'zozlab kelgan. Mana shunday chinakam fazilatlarga ega bo'lgan yoki ega bo'lishga intilayotgan inson nafaqat demokratiya ne'matlarining sohibi, balki ularning faol yaratuvchi va ximoyachisi bo'lib maydonga chiqadi. Ana shunday vaziyatdagina fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson haquhuqlari va erkinliklarini amalda ta'minlash mumkin bo'ladi.

Yuqoridagi bayonimizni umumlashtirib aytish mumkinki, Prezident I.A.Karimov ma'ruzasida belgilangan etti ustuvor yo'nalish va bu xususda bidsirilgan teran fikr-mulohazalar mamlakatimizda demokratik fuqarolik jamiyati barpo etishning strategik dasturidir. Bu dasturni qanchalik chuqur anglab etib, unda belgilangan vazifalarni sobitqadamlik va qat'iyat bilan uddalasak, O'zbekistonda adolatli fuqarolik jamiyatini shunchalik muvaffaqiyat bilan qaror toptirish mumkin bo'ladi.

Fuqarolik jamiyati yuksak darajada uyushgan, batartib munosabatlar tizimiga tayangan, o'zini o'zi boshqarish mexanizmlari mukammal qaror topgan jamiyatdir. Bu jamiyat sharoitida inson va fuqarolarning huquq, erkinlik hamda manfaatlarini aks ettiruvchi, muhofaza etuvchi turli-tuman uyushmalari, birlashmalari, nodavlat tashkilotlar va idoralar mavjud bo'ladi. Ular davlat hokimiyatidan mustaqil bo'lib, o'zini o'zi boshqarish prinsipi asosida jadal faoliyat ko'rsatadi.

Fuqarolik jamiyatida ijtimoiy hayotga katga ahamiyat beriladi. Uning asosiy maqsadi inson hayotini saqlash, uning maqsadlarini, hayotiy orzularini, niyatlarini shu jamiyatdagi tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, guruxlar, oila va boshqa birlashmalar orqali amalga oshirishdir. Bu tashkilotlar, institutlar va guruxdar alohida shaxsga uning

hokimiyat manbai ekanligini, uning layoqati va harakati, obro'si yuksak qadriyat ekanligini tushuntirishga yordam beradilar. Insonlar ushbu tashkilot va birlashmalar orqali o'zlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa maqsadlarini amalga oshiradilar.

Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilariga:

Demak, fuqarolik jamiyati — teng huquqli insonlarning jamiyati, yakka shaxslar yoki jamoalar manfaatlarini ta'minlashga ko'maklashadigan jamoat va nodavlat institutlarining tizimidir.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, fuqarolik jamiyati jamoat birlashmalarining yig'indisidangina iborat bo'lmay, balki ular faoliyatining natijasida paydo bo'ladigan munosabatlar tizimi hamdir. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyatini milliy va diniy an'analarsiz, odatlarsiz, odob-axloq normalarisiz va milliy qadriyatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu jamiyat iqtisodiy, kasbiy, madaniy, diniy va boshqa manfaatlarni shakllantirishga va ularni amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy aloqalar tizimini ham qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi har bir insonning ehtiyojlari, manfaatlari, huquq va erkinliklarini amalga oshirishga qaratilgan. Konstitutsiya insonni eng katta boylik sifatida alohida ko'rsatgani holda fuqaro, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning oqilona, huquqiy hal etilishini siyosiy jihatdan rasmiylashtiradi. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi, ularning inson manfaatlarini himoya qilishga va ijtimoiy munosabatlarni maqbul holga keltirishga yo'naltirilganligi fuqarolik jamiyati asoslarini qaror toptirishning muhim omilidir.

Fuqarolik jamiyatida qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'zini o'zi kamol toptirishiga yordam beradi, shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda bu barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart ekanligini ham bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta'kidlashicha, "O'tmish davri sharoitida fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayoni yuz berayotgan bir paytda O'zbekiston aholisi turli qatlamlarining manfaatlarini ifoda etishi lozim bo'lgan keng

tarmoqli, ko'ppartiyaviy tizim kabi demokratik institutlar hamda boshqa jamoat tashkilotlarining qaror topishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu jihatdan olganda, davlatning roli siyosiy partiyalar va jamoatchilik harakatlarining vujudga kelishi, qaror topishi va rivojlanishini sekinlashtirib qo'yadigan har qanday yov va to'siqlarni bartaraf etishdan iboratdir"¹.

Keng ko'lamda rivoj topgan jamoat birlashmalari tizimining mavjudligi — fuqarolik jamiyatining muhim sifat belgilaridan biridir. Bunday ijtimoiy institutlar vositasida fuqarolar o'zlarining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va turmushningboshqa sohalaridagi ehtiyoj hamda manfaatlarini qondirish va himoyalash, umumiy muammolarni birgalikda hal etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Jamoat birlashmalari davlatdan mustaqil bo'lgan, alohida faoliyat yuritadigan va, ayni vaqtda, davlat institutlariga ta'sir o'tkaza oladigan, davlatning ijtimoiy hayotga, shuningdek, fuqarolarning shaxsiy hayotiga asossiz aralashuvidan muhofaza qilishga yo'naltirilgan tashkilotlardir.

Jamoat birlashmalarining davlatga nisbatan mustaqilligi quyidagilarda ko'rinadi:

birinchidan, ular o'z ichki va tarkibiy tuzilishi hamda faoliyatining yo'nalishlarini mustaqil belgilaydilar;

ikkinchidan, o'z irodalarini o'zlari ifoda etadilar va bu normativ iroda tashkilot a'zolariga majburiy bo'ladi;

uchinchidan, mazkur ijtimoiy tuzilmalar o'z ustav (nizom)lari vositasida tashkilot a'zolarining huquq va burchlarini mustaqil belgilaydilar;

to'rtinchidan, o'z mulki va mablag'lariga ega bo'lib, ularni o'z ixtiyori va ehtiyojiga dolzarb tasarruf etadilar.

Fuqarolarning jamoat birlashmalariga, siyosiy partiyalarga uyushish borasidagi konstitutsiyaviy huquqi ijtimoiy institutlarning, shu jumladan, kasaba uyushmalarining tashkil topishi va faoliyat yuritishi uchun yuridik asos bo'lib xizmat qiladi. Gap O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 34-moddasining 1-qismi xaqida bormoqda. Unga muvofiq, O'zbekiston fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy

¹ Каримов.И.А. Ўзбекистон XX1 аср бўсағасида: ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолотлари. Тошкен 1997 йил 174 бет.

partiyalarga, boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Jamoat birlashmalari xalq ijodkorligi va tashabbusining natijasi bo'lib, uning ijtimoiy-siyosiy hayotda faol hamda samarali ishtirok etishining ishonchli vositasidir. Ular demokratiyaning tarkibiy qismi va fuqarolik jamiyati hayotining shakli sifatida namoyon bo'ladilar. Konstitutsiya jamoat birlashmalarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishi erkinligini kafolatlaydi.

Davlat jamoat birlashmalarining huquqlarini aniq belgilash maqsadida konstitutsiyaviy normalarga tayangan holda alohida qonunlar qabul qiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi parlamenti 1991 yil 15 fevralda "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida" qonun qabul qildi. Uning muqadimasida ramziy ma'no kasb etuvchi quyidagi so'zlar bitilgan: "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ga va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib, ushbu qonunda fuqarolarning jamoat birlashmalarini tuzish erkinligi ularning ajralmas huquqi sifatida mustahkamlab qo'yiladi"¹.

Qonunda jamoat birlashmalarining tushunchasi berilgan: "O'z huquqlari, erkinliklarini xamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarniig xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir" (1-modda).

Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, faxriylar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy, fizkultura-sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, fondlar, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston fuqarolariga o'z faoliyatlarini amalga oshirish uchun keng ko'lamdagi shart-sharoit yaratilgan. Yangilanayotgan jamiyatimizda fuqarolarning davlat ishlarida qatnashish faolligini oshirishda jamoat birlashmalari katta ahamiyat kasb etadi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. 1991 йил. N 4 76 модда.

O'zbekiston Respublikasida amaliy jihatdan katta yoshdagi aholining qariyb hammasi jamoat birlashmalarining faoliyatida qatnashadilar. Shunisi ham borki, ko'pgina fuqarolar bir emas, balki bir necha jamoat birlashmalari faoliyatida ishtirok etadilar. Jamoat birlashmalari o'z tarkibi, maqsad va vazifalari, faoliyat shakllari va ish uslublari bilan bir-biridan farq qiladilar. Lekin ularning hammasiga xos bo'lgan belgilar ham mavjud. Bu jamoat birlashmalari o'z nizomlarida ko'rsatilgan qoidalarga muvofiq, jamiyatni boshqarishda, har xil vazifalarni hal etishda faol qatnashadilar.

Jamoat birlashmalari faoliyatining asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi:

- 1) ixtiyoriylik;
- 2) teng huquqlilik;
- 3) o'zini o'zi boshqarish;
- 4) qonuniylik;
- 5) insoniarvarlik;
- 6) oshkoralik.

Ixtiyoriylik prinsipi shuni bildiradiki, O'zbekiston fuqarolarining har biri o'z xohish-irodasi hamda qiziqishlarini o'z mailiga ko'ra amalga oshiradi. Jamoat birlashmalari yoki siyosiy partiyalarga kirish yoki kirmaslikni fuqarolarning o'zlari hal etadilar, majburiy a'zolikka yo'l qo'yilmaydi.

Teng huquqlilik prinsipi respublikadagi barcha jamoat birlashmalari teng huquq asosida faoliyat ko'rsatishini anglatadi. Birorta jamoat birlashmasining son jihatidan oz bo'lgan boshqa jamoat birlashmasidan ustun bo'lishiga yoki uning huquqlarini kamsitishiga yo'l qo'yilmaydi.

Uzini o'zi boshqarish prinsipi shuni anglatadiki, jamoat birlashmalarida rahbarlik bevosita o'sha jamoat birlashmasi a'zolari orasidan saylangan fuqarolar tomonidan amalga oshiriladi. Davlat, qonunda ko'zda tutilgandan tashqari hollarda, jamoat birlashmalarining faoliyatiga aralashmaydi. Xuddi shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat idoralari va mansabdor shaxslarning faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

Qonuniylik prinsipi barcha jamoat birlashmalarining o'z nizomlarida va boshqa hujjatlarida ko'zda tutilgan vazifalarini bajarishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida ish ko'rishini bildiradi.

Insonparvarlik prinsipiga ko'ra, har bir jamoat birlashmasi o'z faoliyatida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining barcha qoidalari asosida, insonning hayoti, shaxsi va erkinligini, daxlsizligini tan olgan holda olib borishi zarur.

Jamoat birlashmalari ma'lum bir maqsadga erishish uchun tashkil etiladi. "O'zbekiston Respublikasi jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida bu maqsadlar ko'rsatilgan. Unga ko'ra, jamoat birlashmalari:

- fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar hamda erkinliklarni ro'yobga chiqarish va himoya qilish;
- fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish;
- kasbkor va havaskorlik manfaatlarini qondirish;
- ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish;
- aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish;
- madaniy-ma'rifiy, fizkultura-sog'lomlashtirish va sport ishlarini o'tkazish;
- tabiatni, tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish; vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi;
- xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o'rtasida tinchlik va do'stlikni mustaxkamlash;
- ma'naviyat va axloqiylikni qayta tiklash;
- xalqlarning madaniy merosi va milliy boyligi bo'lgan san'at asarlarini izlab topish;
- qadimgi va zamonaviy madaniy boyliklarni, adabiyot va san'atni bilish hamda ko'paytirish;
- ijodning barcha turlarini rivojlantirish, odamlarning iste'dod va qobiliyatlarini namoyon etish maqsadida tuziladi. Respublika Prezidenti I.A.Karimov

ta'kidlaganidek, "ma'naviy potensialni ildam rivojlantirmay turib, respublikaning chinakam mustaqilligini va ravnaq topishini ta'minlab bo'lmaydi".¹

Hozirgi paytda O'zbekistonda 2500 dan ortiq jamoat birlashmalari rasmiy ravishda ro'yxatdan o'tib, faoliyat ko'rsatoqda. Bular jumlasiga, shuningdek, 80 dan ziyod milliy madaniy markazlar, 40 dan ortiq jamg'arma va xayriya tashkilotlari, 65 ta jamiyat, 19 ta birlashma, 34 ta assotsiatsiya, 37 ta federatsiya, 16 ta tarmoq kasaba uyushmasi, 40 dan ziyod ayollar va bolalar tashkilotlari kiradi. Mazkur tashkilotlarning 500 dan ortig'i viloyatlar adliya boshqarmalarida ro'yxatdan o'tgan.

Davlatning fuqarolik jamiyati institutlari sifatida jamoat birlashmalarini, jumladan, turli jamg'armalarning qaror topishida xayrixolik bildirayotganligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va hukumat qarorlari vositasida o'zining yaqqol isbotini topmoqda. Masalan, Prezidentning "Navro'z" xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi (1992 yil 23 may), "Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi (1992 yil 12 sentyabr), "Umid"

jamg'armasini tuzish to'g'risida"gi (1997 yil 7 yanvar), "Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi (1998 yil 16 noyabr), "O'zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroni" jamg'armasi to'g'risida"gi (1996 yil 14 dekabr), "Hukumatga qarashli bo'lmagan "Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi (1993 yil 23 aprel), "Ijodkor yoshlarning "Iste'dod" Respublika jamg'armasini tuzish haqida"gi (1993 yil 4 may), "Ibn Sino xalqaro jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi (1999 yil 6 yanvar) farmonlari, Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Xalqaro madaniy-ma'rifiy aloqalar milliy uyushmasini tashkil etish to'g'risida"gi (1992 yil 25 mart), "Ekosan" xalqaro ekologiya va salomatlik jamg'armasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi (1994 yil 17 noyabr), "Xalqaro Amir Temur jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi (1996 yil 14 mart), "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi (1996

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Тошкент 1992 йил. 22 бет.

yil 27 sentyabr), "O'zbekiston Ommaviy axborot vositalarini demokratiyalash va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasi to'g'risida"gi (1996 yil 8 noyabr), "Jurnalistlarni qayta tayyorlash xalqaro jamoatchilik markazini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi (1997 yil 14 aprel), "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik Markazini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi (1997 yil 9 iyul), "O'zbekiston Arxitektorlar uyushmasining faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi (1998 yil 16 iyun) qarorlari va boshqalar.

Konstitutsiya jamoat birlashmalari orasida eng qamrovli va nufuzli tashkilot hisoblanmish kasaba uyushmalarini alohida e'tirof etadi. Bu munosabat O'zbekistonda "Kasaba uyushmalari huquqlari va faoliyati ning kafolatlari to'g'risida"gi alohida qonunning (1993 yil) mavjudligi bilan ham izohlanadi¹.

. Jamoat birlashmalari O'zbekiston Respublikasi qonunlariga va o'z nizomlariga muvofiq xalqaro jamoat birlashmalari bilan bevosita aloqa o'rnatishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1999 yil 14 aprelda "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonunini qabul qildi. Qonunning qabul qilinishi mazkur toifa jamoat birlashmalarining faoliyati keng huquqiy asosga tayanishi va rivojlanishi uchun yo'l ochib berdi. Nodavlat notijorat tashkilotini jismoniy yoki yuridik shaxslar (yoki birgalikda) ixtiyoriylik asosida tashkil etadilar. Ular jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini boshqa demokratik qadriyatlarni ximoya qilish, ijtimoiy madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarnish huquqdari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etishi uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Davlat ularning alohida ijtimoiy foydali dasturlariga ko'mak ko'rsatishi mumkin. Davlat idoralari, mansabdor shaxslar nodavlat notijorat

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши ахборотномаси. 1992. № 9.

tashkilot faoliyatiga aralashishiga, xuddi shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotning davlat idoralari hamda mansabdor shaxslarining faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi. Qonunda nodavlat notijorat tashkilotlarning huquklari, majburiyatlari, shuningdek, ularning tashkiliy-huquqiy shakllari, tashkil etilish asoslari, ustavlari, ro'yxatdan o'tkazish tartiblari, mulkiy maqomi, tadbirkorlik faoliyati va soliq to'lash masalalari hamda faoliyatini to'xtatish va tugatish tartiblari batafsil belgilab berilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston qonunchiligida amalga oshirilayotgan ishlardan yana biri aynan "uchinchi sektor"ning huquqiy xolatini yanada aniq qilishgan qaratilgandir. O'zbekiston Oliy Majlisi tomonidan ishlanayotgan va Prezidentimiz tashabussi bilan vujudga kelgan "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy sherikchilik to'g'risida"gi qonun loixasini aytga olishimiz mumkindir. Loixa xozirda bir necha bor muxokamadan o'tib mukammallik darajasiga yaqillashib bormoqda. Qonuning bosh maqsadi "ijtimoiy sherikchilik sohasidagi munosabatlarni tartibga solish va ijtimoiy sherikchilik sub'ektlarining ijtimoiy ahamiyatga ega masalalarni hal etishdagi o'zaro munosabatlarini ta'minlashdan iborat."

Qonun o'z mohiyatiga ko'ra Ijtimoiy sherikchilikka tushuncha sifatida taxlil berar ekan unda aniq qilib quydagilar bitilgan. "ijtimoiy sherikchilik – nodavlat notijorat tashkilotlari, davlat hoqimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining kelishilgan ijtimoiy – iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar mu ammolarni hal etish, mamlakatimiz aolisi turli qatlamlarining huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishdagi o'zaro munosabati;"¹ deya takidlanadi.

Biz tadqiq qilayotgan mavzuning umumiy xulosasi "uchinchi sektor" tashkilotlari yani nodavlat notijorat tashkilotlarning jamiyat siyosiy hayotida ishtiroki masalasini o'rganishni mana shu qonuning kuchga kirishida bo'ladigan o'zgarishlarga etiborni qaratadi. "Uchinchi sektor" tashkilotlari va davlat organlari o'zrtasida munosabatga keskin oydinlik kiritilishi natijasida fuqarolik jamiyati qurilishi ishlari yanada faollashib boradi.

¹ Ўзбекистон Республикаси "Ижтимоий шерикчилик тўғрисида"ги қонуни, лоихаси.

XULOSA

Bugungi kunda mamlakatimizda kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida ulkan ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Kuchli fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy asoslari yaratilmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish istiqbollarini Prezident Islom Karimov "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da atroflicha yoritib berdi. Konsepsiyaning beshinchi bobi bevosita fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishiga bag'ishlangan bo'lib, unda fuqarolik jamiyatini barpo etishda ushbu tuzilmalarning nechog'liq ahamiyat kasb etishi, bu borada kelgusida amalga oshiriladigan ishlar, qabul qilinadigan qonunlar, amaldagi qonunlarga kiritilishi lozim bo'lgan o'zgartirishlar batafsil bayon qilib berildi.

XXI asr boshida qudratli davlatlarning rivojlanayotgan davlatlar ustidan hukmronlik qilishi, ularni o'z ta'siri ostiga olishi yanada kuchaydi. Bu davlatlar o'zlarining ekspansiya siyosatini yangicha usul va vositalar orqali amalga oshirishga intilmoqda. Shu usullardan biri - muayyan mintaqalar, davlatlar va xalqlar o'rtasida demokratiya tamoyillarini yoyish bahonasini bilan turli nomdagi NNT, jamg'armalar va markazlar orqali o'z maqsadlariga erishishdan iborat.

Dunyoga hukmronlikni da'vo qilayotgan davlatlar o'z g'oyalari va turmush tarzini o'zga yurtlarda yoyish uchun turli nodavlat tashkilotlari, markazlar, jamg'armalar faoliyatidan ustomonlik bilan foydalanishga urinmoqda. Bunday xatti-harakatlarning oldini olish uchun milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, fuqarolar, millat va jamiyat manfaatlarini o'zida mujassamlashtirgan nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini yanada kuchaytirishga keng imkoniyatlar, ijtimoiy shart-sharoitlar yaratish lozim. Ularga ajratiladigan moliyaviy mablag'lar miqdorini oshirib borish maqsadga muvofiqdir. Ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun esa, eng avvalo, davlat tashkilotlari, viloyat hokimligi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi hamda xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan

tashkilotlarning moliyaviy ko'magi zarur. Chunki NNTlarning bevosita foyda keltiradigan moliyaviy manbalari yo'q.

Hozirgi zamon fuqarolik jamiyati ijtimoiy-siyosiy institutlarining o'ziga xos xususiyatlari jamiyat hayotida kishilarning turli ijtimoiy ehtiyojlari va manfaatlarini qondirib borishi jarayonida namoyon bo'ladi. Zero, jamiyat hayotining turli soha va yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan fuqarolik jamiyati institutlari, xuquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishining muhim shartidir.

O'zbekistonda hozirga kelib, fuqarolik jamiyati institutlari jahonning rivojlangan davlatlari va fuqarolik jamiyatining umume'tirof etilgan tamoyillari hamda milliy o'ziga xos jihatlari asosida faoliyat yuritmoqda. Chunki fuqarolik jamiyatining asosiy tamoyillari nodavlat va jamoat birlashmalari orqali shakllanib boradi. Nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari, o'z mohiyati jihatidan davlat muassasalaridan farq qiladi. Bu tafovut, asosan, fuqarolik jamiyati tamoyillarining amal qilib borishi bilan belgilanadi.

Fuqarolik jamiyatida boshqaruvning ko'plab funksiyalari davlat tasarrufidan o'z-o'zini boshqarish organlariga o'tib boradi. Aholi turli qatlamlari, alohida shaxslar muayyan nodavlat va jamoat tashkiloti orqali jamiyat boshqaruvida faol qatnashadi. Shu asnoda jamiyat o'zini o'zi boshqarib boradi. Bu jarayonda qaysidir shaxs, hokim yoki rahbar xohish-irodasi, xukmronligi yoki muruvvati emas, balki fuqarolarning demokratiyaga asoslangan yuksak huquqiy madaniyati va dunyoqarashi ustuvor bo'ladi.

Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining asl mohiyati unga a'zo bo'lgan kishilar, shaxslar, ijtimoiy guruhlar, kasb-kor egalarining tub manfaatlarini, hayotiy ehtiyojlarini qondirib borishdan iborat bo'lmog'i lozim. NNTlarning har qanday faoliyati, o'tkazadigan ommaviy tadbirlari ana shu maqsadga qaratilishi darkor.

Hozirda O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarinnng shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy-moliyaviy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Zero, moddiy-moliyaviy jihatdan bakuvvat bo'lgan nodavlat notijorat tashkiloti o'z faoliyati orqali aholi turli qatlamlari, ijtimoiy

guruhlarining maqsad-manfaatlari, ehtiyojlarini to'laroq qondirib borish imkoniyatiga ega bo'ladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy institutlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faolligi ortayotganligi kuzatilmoqda. Joylarda siyosiy partiyalar boshlangich partiya tashkilotlari sonining ortib borishi va ularning faollashuvi, o'z navbatida, fuqarolik jamiyati tamoyillarning amal qilishi uchun zamin yaratadi

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarini shakllantirish va rivojlantirish istiqbollari Yurtboshimizning yuzga yaqin ma'ruza va nutqlari hamda asarlarida ularni tashkil qilish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish, mavjud muammolarni bartaraf etish bilan bog'liq masalalar asoslab berildi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda demokratik islohotlarni chukurlashtirish borasida muhim rol o'ynamoqda.

Yurtboshimiz "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi, "Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari raislari (oqsoqollari) va ularning maslahatchilarini saylash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunlarni, inson xuquqlari sohasida milliy harakat dasturini qabul qilish zarurligi to'g'risidagi takliflari yurtimizda kuchli fuqarolik jamiyatini barpo qilish uchun muhim zamin hozirlaydi.

O'zbekistonda "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilini amalga oshirishda, fuqarolarning siyosiy faolligini yuksaltirishda, ijtimoiy-siyosiy manfaatlari, qiziqishlarga qondirib borishda davlat tashkilotlari bilan bir qatorda nodavlat notijorat tashkilotlari hamda jamoat birlashmalarinnng roli kattadir.

Kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim jihati fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligiga erishish orqali ularnnng yuksak ma'naviyatli shaxs

sifatida kamolotini ta'minlashdir. Bu esa, o'z navbatida, kuchli fuqarolik jamiyati tamoyillariniyam amal qilishida ustuvor ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi erkin bozor munosabatlariga asoslangan ochiq, huquqiy demokratik davlat qurish, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish, odamlar turmushini taraqqiy tugan davlatlar darajasiga ko'tarish, mamlakatimizni jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashidan iboratdir.

"Ijtimoiy sheriklik" tushunchasi mamlakatni modernizatsiya qilish ijtimoiy yo'naltirilgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilish, jamiyat hayotining barcha sohalarida davlat tashkilotlari bilan nodavlat tashkilotlari hamda jamoat birlashmalarining o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatishini anglatadi.

Yurtboshimiz Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda kuchli fuqarolik jamiyati barpo qilishda, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini yanada jonlantirish va ularni tashkil etish mexanizmini takomillashtirishda alohida ahamiyatga molik.

Ijtimoiy sheriklik tom ma'noda davlat tashkilotlari bilan 2 va 3-sektorda faoliyat ko'rsatuvchi tashkilotlar hamda ularning o'zaro hamkorlikda ish yuritishini nazarda tutadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro ijtimoiy sheriklik asosida ish olib borishida O'zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasining roli beqiyosdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishda, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan davlat tashkilotlari hamda iqtisodiyot yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan tashkilotlarning o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatishi Respublikamizning rivojlanishiga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 25 avgustda e'lon qilingan "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ish-bilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonida nodavlat,

xususiy tashkilotlar faoliyatini yanada kengaytirishda muhim ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyat kasb etadi.

Xullas, hozirgi davr ijtimoiy munosabatlarida shaxs, aholi turli qatlamlari va guruhlarining maqsad-manfaatlarini xilma-xil shaklda qondirib borishga, ular o'rtasida ijtimoiy muvozanatni ta'minlashga qaratilgan fuqarolik jamiyati institutlari - nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari faoliyati O'zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 2014yil.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. -T.: "O'zbekiston", 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. -T.: "O'zbekiston", 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagox kabi muqaddasdir. 3-jild. -T.: "O'zbekiston", 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. -T.: "O'zbekiston", 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-jild. -T.: O'zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barkaror taraqqiyot yo'lidan. 6-jild. -T.: "O'zbekiston", 1998.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. -T.: "O'zbekiston", 1999.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. -T.: "O'zbekiston", 2000.
10. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun xar birimiz mas'ulmiz. 9-jild. -T.: "O'zbekiston", 2001.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild. -T.: "O'zbekiston", 2002.
12. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va mahrifiy dunyo bilan xamkorlik yo'li. 11-jild. -T.: "O'zbekiston", 2003.
13. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, xamjixatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12-jild. -T.: "O'zbekiston", 2004.
14. Karimov I.A. O'zbek xalqi xech qachon, xech kimga qaram bo'lmaydi. 13-jild. -T.: "O'zbekiston", 2005.
15. Karimov I.A. Inson, uning xuquq va erkinliklari – oliy qadriyat. 14-jild. -T.: "O'zbekiston", 2006.

16. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, isloxotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning xayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2007.
17. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yolida. 16-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2008.
18. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini tahminlash – bizning oliy maqsadimiz. 17-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2009.
19. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi.// Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning 2010 yil 12 noyabrda bo‘lib o‘tgan qo‘shma majlisidagi ma’ruza.
20. Karimov I.A. Jaxon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko‘tarilishi sari. 18-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2011.
21. Karimov I.A. Demokratik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2011.
22. Karimov I.A. Bizning yo‘limiz – demokratik isloxotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir. 20-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2011.
23. Karimov I.A. Milliy istiqlool mafkura – xalq ehtiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –T.: “O‘zbekiston”, 2000.
24. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: “O‘zbekiston”. 1997.
25. Karimov I.A. Yuksak mahnaviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”. 2008.
26. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: “O‘zbekiston”. 2011
26. Karimov I.A. Yangicha ishlash va fikrlash - davr talabi. 5-jild. – T.: O‘zbekiston, 1997.

27. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. T.: O'zbekiston, 2007.
28. Karimov I.A. Yuksak manaviyat - engilmas kuch. -T.. Ma'naviyat, 2008.
6. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – xayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009.
29. Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. "Xalq so'zi", 2009 yil 6 dekabr.
30. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. –T.: O'zbekiston, 2010.
31. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010.
32. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2010 yil 8 dekabr.
33. Karimov I.A. O'zbekiston Qurolli Kuchlarining 19 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2011 yil 14 yanvar.
34. "Jamoat birlashmalari" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni. 1991 yil 15.02. №223-XII.
35. "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. - T.: Adolat, 1999. 14.04. № 763-1.
36. "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2007.
37. O'zbekistondagi nodavlat va jamoat birlashmalari faoliyatining nazarny asoslari (Prezident Islom Karimov asarlari asosida) K.A.YUnusov tahriri ostida. Ko'llanma. Andijon: AndDU, 2008.
38. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishda nodavlat va jamoat birlashmalariniig roli. Risola. K.A.Yunusov tahriri ostida. Andijon: AndDU, 2009.

39. Eisenstadt S. N. Modernization: Protest end Change. — Englewood Cliffs, 1966.
40. Teoriya politiki: Uchebnoe posobie / Pod red. B. A. Isaeva. — SPb., 2008.
41. Alimarin S.I. Sotsialnaya evolyusnya i ideologiya//MOJl (Moskovskaya Organizatsiya Literatorov). —№ 1. — 2003.
42. Gorodyanenko V. G Sotsiologaya Padruchnix. — K. «Naukova Dumka» 2003.
43. Eyzenshtadt SH. Revolyusiya i preobrazovanie obshestv. Sravnitelnoe izuchenie sivilizatsiy. — M., 1999.
44. Fedotova V.G Ot dogonyayushey modernizatsii k natsionalnoy: teoreticheskiy aspekt. perspektivy.info.

Gazeta ma'lumotlari

1. "XXI ASR" gazetasi, 2014 yil
11 avgust
2. "Milliy tiklanish" gazetasi, 2014yil

Internet ma'lumotlari

1. <http://ni.wildpedia.org/wiki/>
2. <http://www.xdp.uz/>
3. <http://www.iscs.uz/index.php>.
4. <http://www.politike.ru>.
5. <http://ngo.uz>.

